

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 348 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние протекционистской политики на инвестиционные стратегии промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....	78
I.F.Sayfiddinov	
Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati.....	83
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan	86
Akmal Boymurodov	
Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari	91
Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi	
В условиях трансформации обеспечение развитие образования и нуки в сфере подготовки управленческих кадров	98
Суюнов Дилмурод Холмурадович	
Ипотечное кредитование как инструмент социальной политики в узбекистане	104
Базарова Нигора Равшановна	
Kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari.....	110
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Kichik korxonalar istiqbolli hududlarda sanoat ishlab chiqarish holati dinamikasi.....	114
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
Banklarning aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari	118
Elbusinova Umida Khamidullaevna	



Ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'siri	123
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
O'zbekiston tijorat banklarining yashil iqtisodiyotdagi o'rni	128
Eshev Furqat A'zamovich, Ibragimova Feruza Axtamovna, Jumanazarova Malika Baxtiyorovna, Raxmatova Mohina Dilmurod qizi	
Использование интеллектуальных технологий в процессе обслуживания клиентов банка	132
Хашимова Дилёра Пахритдиновна	
Innovatsion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omil va jihatlari.....	138
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Import tovarlari bo'yicha aksiz solig'ini undirishning nazariy asoslari.....	143
Abdurasulov Murodjon Bahrom o'g'li	
Роль цифровых валют центральных банков в модернизации платёжной инфраструктуры: мировой опыт и перспективы Узбекистана	150
Срожиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Tijorat banklarida chakana to'lov tizimlarini nazariy asosi.....	155
Sultonov Davronjon Rustam o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda strategik menejmentning roli	161
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston.....	170
Islomova Dilrabo Salomovna	
Iqtisodiy masalalarni matritsalar nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish.....	175
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Pul bozori barqarorligini ta'minlashda tijorat banklarida likvidlikni boshqarish samaradorligi	188
Sattorova Nasiba G'aniyoz qizi	
The role of digitalization of healthcare in the implementation of the safe city project	192
Akbarjon Iminov	
Аутоиммунные поражения центральной нервной системы, возникающие после стрептококковой инфекции	198
Умарова Саодат Сулаймоновна, Нормакматов Бахтиёр Ботиралиевич	
Iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investiyalar tahlili.....	204
Namozov Olim Botirovich	
Creating a favorable climate for investment in agriculture	209
U.I.Djumaniyazov, B.J.Mirzaev	
Davlat ishtirokidagi korxonalarni korporativ boshqaruvni xalqaro standartlari asosida takomillashtirish	214
F.Djalilov	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy su'gurt qilish xarajatlarini hisobi.....	222
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
O'zbekistonda bank operatsion xarajatlari buxgalteriya hisobi.....	227
Qurbonova Sitara Vahobjon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari.....	233
Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li	
Пути обеспечения стабильного экономического роста в условиях перехода к зелёной экономике, совершенствования государственной экономической политики и повышения эффективности внедрения принципов цикличной экономики.....	237
Худайбергенова Адалат Негматуллаевна, Убайдуллаев Сирожиддин Жамшидович, Файзиёва Хамида	



Кудратовна, Эшбоев Миржалол Бахромович	
O'zbekiston sanoatining iqtisodiy holatini baholash	241
Mamanazarov Oybek Shomurodovich	
Maktabgacha ta'limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda matematika va savod asoslarining didaktik yechimlari.....	247
Mingboyeva Guldorxon Maxmudovna	
Soliq tizimida soliq riskini baholash uslubiyoti.....	252
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Budjetni rejalashtirish tizimida jismoniy shaxslar daromadlari bo'yicha prognozlashni takomillashtirishning metodologik asoslari	260
Babaev Shavkat Bayramovich	
Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления.....	267
Машарипова Шахло Адамбаевна	
Yashil mehmonxonalarda strategik tahlil metodologiyasi	274
Rasulova Nigora Yusupovna	
Цифровая трансформация: новые возможности и современные тенденции в управлении бизнесом и инвестициями.....	279
Баратова Динора Алишеровна	
Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatishning sifati va samaradorligini baholash.....	283
Ikromov Akbar Farxod o'g'li	
Модель внедрения open banking в Узбекистане: предложение на основе международного опыта и локальных особенностей.....	288
Камалов Шухрат Камалович, Аскарова Дилором Хожимуратовна, Баходиров Жасурбек Олёрбек ўғли, Маликов Шохрух Шокирович, Тенгелова Фарангиз Мажид кизи	
O'zbekistonda islom moliyasini joriy qilishning yo'llari	295
Ashurbayev Farrux Alisher o'g'li , Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
AQSH tajribasiga ko'ra eksportni iqtisodiy o'sishga tasiri	299
D.E.Qarshiev	
Iqtisodiyotni tartibga solish orqali aholi farovonligini oshirishning ahamiyati	304
Berdibekov A.	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va aholi moliyaviy savodxonligini oshirishda inklyuziv molianing ahamiyati.....	308
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Problems of the financial mechanism influence for stable and inertial development of enterprises.....	313
Zaynalov Jakhongir Rasulovich, Alieva Susanna	
Tibbiyot turizmni rivojlantirish va uning salohiyatini iqtisodiy baholashning ilmiy va uslubiy asoslari	317
Vofaxojayeva Dilafruz Marufovna	
Turistik destinatsiyalar va raqamli marketing texnologiyalari orqali turizm barqarorligini transformatsiya qilish	322
Nurmuhammadxon Oppoqonov	
Kichik va o'rta biznes moliyaviy barqarorligining kambag'allikni kamaytirishdagi ahamiyati.....	327
Djamalov Xasan Numanjanovich	
Qoraqalpog'iston respublikasida turizmni rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy salohiyatini baholash.....	335
Xoshimov Baxrom Baxadirovich	
O'zbekiston turizm sektorida tog' turizmining ulushi.....	343
Alimov Abduvakil Komil o'g'li	



O'ZBEKISTON TURIZM SEKTORIDA TOG' TURIZMINING ULUSHI



Alimov Abduvakil Komil o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Samarqand filiali tayanch doktranti

Email: abduvakilalimov1@gmail.com

ORCID: 0009-0005-6493-4691

Tel.: +998933515231

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonning turizm sektorida tog' turizmining o'rni va salohiyati tahlil qilinadi. Tog'li hududlarning geografik joylashuvi, tabiiy-iqlimiy xususiyatlari va mavjud infratuzilmaning holati asosida tog' turizmining rivojlanish istiqbollari baholanadi. Shuningdek, tog' turizmi orqali mintaqaviy iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va mahalliy aholining daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada mavjud muammolar va rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi omillar ham tahlil etilib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: tog' turizmi, O'zbekiston, turizm salohiyati, iqtisodiy ta'sir, infratuzilma, ekologik barqarorlik, hududiy rivojlanish.

Abstract: This article analyzes the role and share of mountain tourism within Uzbekistan's tourism sector. It evaluates the geographic and climatic features of mountainous regions, the current state of infrastructure, and the prospects for developing mountain tourism. The paper also explores how mountain tourism can boost regional economic activity, generate employment, and diversify income sources for local populations. Challenges and constraints to development are identified, with proposed solutions.

Key words: mountain tourism, Uzbekistan, tourism potential, economic impact, infrastructure, ecological sustainability, regional development.

Аннотация: В статье рассматривается роль горного туризма в туристическом секторе Узбекистана. Анализируются географическое расположение горных территорий, природно-климатические особенности и текущее состояние инфраструктуры. Оцениваются перспективы развития горного туризма с точки зрения его вклада в повышение региональной экономической активности, создание рабочих мест и диверсификацию доходов местного населения. Также определены существующие проблемы и даны рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: горный туризм, Узбекистан, туристический потенциал, экономическое влияние, инфраструктура, экологическая устойчивость, региональное развитие.

KIRISH

O'zbekiston turizm sohasi oxirgi yillarda jadal rivojlanib, yangi yo'nalishlar va xizmat turlarini o'z ichiga olgan holda kengayib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, tog' turizmi mamlakatning tabiiy-geografik resurslaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida e'tiborni tortmoqda. Garchi tog' turizmi bo'yicha aniq milliy statistika cheklangan bo'lsa-da, mavjud ma'lumotlar ushbu segmentning umumiy turizm tizimidagi sezilarli o'rnini ko'rsatadi. Jumladan, so'nggi baholashlarga ko'ra, tog' turizmi O'zbekistonga



tashrif buyurgan sayyohlarning taxminan 10–15 foizini qamrab oladi. Biroq turizm daromadlari nuqtayi nazaridan bu yo'nalishning hissasi hozircha ancha past – 1 foizdan kamroq deb baholanmoqda.

Mazkur nomutanosiblik tog' turizmining iqtisodiy salohiyatini chuqur tahlil qilish va keng qamrovli statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shunga qaramay, hukumat tomonidan tog'li hududlarga bo'lgan e'tibor ortib, infratuzilmani rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish va targ'ibot faoliyatlarini kuchaytirish borasida muhim qadamlar tashlanmoqda. Natijada, tog' turizmining mamlakatning turistik mahsulotlarini diversifikatsiya qilish hamda xalqaro bozorda raqobatbardoshligini ta'minlashdagi roli tobora ortib bormoqda.

TADQIQOTGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda tog'li hududlarda turizmning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi omil, balki mahalliy aholining turmush tarziga, ijtimoiy tuzilmasiga va atrof-muhitga ham sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani haqida ko'plab xorijiy tadqiqotlar e'lon qilingan. Masalan, Shrestha va Nepal tomonidan olib borilgan tadqiqotda (2009) Nepal tog'li hududlarida turizmning qishloq xo'jaligiga ko'rsatgan ijobiy va salbiy ta'siri yoritilgan bo'lib, ular bu ikki soha o'rtasida integratsiyani muhim deb hisoblaydilar. Shu bilan birga, Dorji va Kinga (2011) Bhutandagi Jigme Dorji milliy bog'i misolida ekoturizmning tabiiy muhitni saqlash va mahalliy daromadlarni oshirishdagi rolini tahlil qilganlar.

Pröbstl-Haider va Haider (2007) Alp tog'laridagi barqaror turizm amaliyotlarini o'rganib, ekologik barqarorlik, infratuzilma muvozanati va aholi farovonligi o'rtasidagi bog'liqlikka urg'u beradilar. Canavan (2014) esa Peru And tog'larida turizmning kambag'allikni kamaytirishdagi ta'sirini chuqur tahlil qilib, mahalliy aholini ish bilan ta'minlash va daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Godde, Price va Zimmermann (2000) tomonidan tahrirlangan fundamental tadqiqotda tog'li hududlarda turizmni rejalashtirish, boshqarish va mahalliy manfaatdor tomonlarni jalb qilishning institutsional va ekologik jihatlari keng yoritilgan. Nunnally (2014) esa Nepal Himoloyi bo'yicha o'z tadqiqotida turizmning madaniy qadriyatlar va ijtimoiy tuzilmalarga ko'rsatgan ta'sirini ijtimoiy o'zgarishlar kontekstida baholaydi.

Turizmning gender tengligiga ta'siri masalasida Swain (2012) tog'li hududlarda ayollar ishtirokining kuchayishi, ularning iqtisodiy faolligi va qaror qabul qilishdagi o'rni ko'rsatadi. Nihoyat, iqlim o'zgarishi kontekstida Amelung va Nicholls (2014) tog'li hududlarda turizm infratuzilmasi va sayyohlar oqimi iqlimga sezgir ekanini, bu esa uzoq muddatli strategik rejalashtirishni talab qilishini ta'kidlaydi.

Ushbu adabiyotlar tog'li hududlarda turizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, ekologik va madaniy mezonlarni hisobga olgan holda olib borilishi zarurligini ko'rsatmoqda. Tajriba shuni tasdiqlaydiki, tog' turizmi barqarorlik tamoyillariga asoslangan holatda rivojlantirilgandagina mahalliy aholining farovonligiga real hissa qo'sha oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar asosan rasmiy turizm statistikalari, Davlat statistika qo'mitasi hisobotlari va xalqaro ilmiy maqolalar asosida yig'ildi. Ma'lumotlar kontent tahlili usuli orqali tahlil qilinib, tog' turizmining ulushi va iqtisodiy ta'siri aniqlashga qaratilgan solishtirma va tavsifiy tahlil metodlari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning turizm sektori so'nggi yillarda sezilarli o'sishni namoyish etdi va barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Xalqaro sayyohlar oqimi 2016-yildagi taxminan 1 milliondan 2023-yilda 7 millionga yetdi. Ushbu sezilarli o'sish hukumatning turizmni milliy iqtisodiyotning asosiy ustunlaridan biri sifatida shakllantirishga qaratilgan qat'iy sa'y-harakatlarini aks ettiradi. Mamlakat ko'rsatkichlari xalqaro e'tirofga sazovor bo'ldi, bunga 2023-yilda dunyodagi eng tez rivojlanayotgan 20 ta turizm sanoati qatoriga kiritilgani dalil bo'la oladi. Bundan tashqari, O'zbekiston global pandemiyadan tiklanishda yuqori darajadagi barqarorlikni namoyon etdi va 2023-yilga kelib 2019-yildagi pandemiyagacha bo'lgan xorijiy sayyohlar sonining 98 foiziga erishdi. Faqatgina 2023-yilning o'zida O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 6,7 millionga yetdi. Ushbu o'sish sur'ati 2024-yilda ham davom etdi — yilning sakkiz oyida mamlakatga 5,04 million sayyoh tashrif buyurdi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17 foizga ko'pdir. Hukumat 2024-yilda 10 million sayyohni jalb qilish bo'yicha ulkan maqsadni belgilagan, bu esa sektorni yanada kengaytirishga bo'lgan qat'iy sodiqlikni ko'rsatadi.

Turizmning O'zbekiston iqtisodiyotiga qo'shgan hissasi ham sezilarli va ortib bormoqda. 2023-yilda sektor taxminan 2 milliard dollar daromad keltirgan. Boshqa manbalarda esa undan ham yuqori ko'rsatkichlar keltirilgan — bir manbaga ko'ra, 2,1435 milliard dollar, boshqa manbada esa 2024-yilda 3,5 milliard dollar turizm daromadi qayd etilgan, bu esa 2023-yilga nisbatan 1,5 barobar ko'proqdir. Ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi



farqlar hisob-uslublar va davrlar tafovuti bilan izohlanadi. Biroq barcha manbalar turizmning O'zbekiston iqtisodiyoti uchun sezilarli ta'sirini tasdiqlaydi. Turizm sektorining mamlakat yalpi ichki mahsulotiga (YalM) qo'shgan hissasi taxminan 3,5 foizni tashkil etadi, bu uning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatini tobora oshirib borayotganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, turizm xizmatlarining umumiy xizmatlar eksportidagi ulushi sezilarli darajada oshib, 2017–2022-yillar oralig'ida 1,8 barobar o'sdi va 2022-yilda 40,7 foizga yetdi. Bu holat turizmning O'zbekiston xizmatlar eksporti tarkibidagi strategik rolini yaqqol namoyish etadi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston turizm statistikasi (2016-2023)

Yil	Xalqaro sayyohlar oqimi (million)	Taxminiy turizm daromadi (milliard AQSh dollari)
2020	1.5	0.395
2021	1.88	1.2
2022	5.2	1.6
2023	6.7	2.0 - 2.14
2024	7.9	3.1

O'zbekistonning xilma-xil geografiyasi sezilarli tog'li hududlarni, xususan, Tyan-Shan va Pomir tog' tizmalarini o'z ichiga oladi. Bu hududlar hayratlanarli manzaralari va sayyohlar uchun keng ko'lamli diqqatga sazovor joylari bilan ajralib turadi. Tog'li hududlar sarguzasht va tabiat turizmi uchun salohiyati bilan tobora kengroq e'tirof etilmoqda. Bu yerda mashhur faoliyatlar qatoriga chang'i uchish, piyoda sayr qilish, trekking, toshga chiqish, otda sayr qilish va tog' g'orlarini o'rganish kiradi. Chimyon tog'lari ayniqsa mashhur joy sifatida ajralib turadi. Bu yerda Chimyon, Beldersoy va Amirsoy kabi mashhur chang'i kurortlari joylashgan bo'lib, ular tobora ko'proq qishki sport ixlosmandlarini jalb qilmoqda. Sarguzasht mashg'ulotlaridan tashqari, O'zbekistonda tog' turizmi qadimiy tog' qal'alari va tosh rasmlari bo'lgan joylarga tashriflarni ham o'z ichiga oladi. Bu esa tabiiy landshaft bilan madaniy va tarixiy merosni uyg'unlashtiradi.

O'zbekiston hukumati tog' turizmini mamlakatning umumiy sayohat va turizm sektorini diversifikatsiya qilish strategiyasining muhim elementi sifatida belgilagan. Ushbu strategik yo'nalish O'zbekistonning jozibadorligini kengaytirish hamda sarguzasht va tabiatga asoslangan tajribalar izlayotgan, shu jumladan, xalqaro sayyohlarning kengroq qatlamini jalb qilishga qaratilgan. Sektor rivojini ta'minlash uchun infratuzilmaning muhimligini e'tirof etgan holda, hukumat chang'i kurortlarini takomillashtirish va yangi yo'llarni barpo etishga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bundan tashqari, Toshkent viloyatida tog' turistik klasterlarini rivojlantirishga bag'ishlangan maxsus bo'limlar tashkil etildi. Hukumat O'zbekiston tog'larini "yashirin marvarid" sifatida faol targ'ib qilmoqda. Bu esa sarguzasht ixlosmandlari hamda noyob va boyituvchi sayohat tajribasini izlayotgan tabiatsevarlarga mo'ljallangan aniq marketing strategiyasini ifodalaydi.

Tog' turizmi statistikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda bu yo'nalishning salohiyati va o'sishi yaqqol namoyon bo'lishiga qaramay, tog' turizmining umumiy turizm sektoriga qo'shgan hissasi bo'yicha to'liq milliy statistika hozircha mavjud emas. Mavjud tadqiqot materiallarida tog' turizmining umumiy turizm daromadi yoki tashrif buyuruvchilar sonidagi ulushiga oid yagona foiz ko'rsatkichi keltirilmagan. Biroq ayrim mintaqaviy va maxsus ma'lumotlar muhim tahliliy tushunchalarni beradi.

Toshkent viloyatida joylashgan Chimyon singari mashhur tog'li hududlarda ekoturizmning faol shakllari — alpinizm, rafting, piyoda sayr qilish, trekking, toshga chiqish, speleologiya va otda sayr qilish — mintaqadagi barcha turizmning 60 foizini tashkil qiladi. Bu Toshkent yaqinidagi tog'larga tashrif buyurayotgan mahalliy va xalqaro sayyohlar orasida ochiq havoda faol dam olish va sarguzashtga bo'lgan qiziqish yuqoriligini ko'rsatadi. Aksincha, tarixiy-bilish turizmi Toshkent viloyati turizmining taxminan 10 foizini tashkil etadi. Ekoturizmning passiv shakllari esa sayyohlarning 30 foizdan kamrog'ini jalb qiladi. Ushbu mintaqaviy ma'lumotlar Toshkent hududida faol, tog' bilan bog'liq turizmning ustunligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston bo'ylab ichki turizm afzalliklari bo'yicha o'tkazilgan so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, respondentlarning 17,6 foizi tog'larda va tog'li hududlarda dam olishni afzal ko'radi. Bu ichki sayyohlar orasida tog'li joylarga yuqori qiziqish mavjudligini bildiradi va tog' turizmi uchun barqaror ichki bozor mavjudligini anglatadi. Bundan tashqari, tog' turizmi sektorining o'sishi bo'yicha mavjud ma'lumotlar 2018–2023-yillar oralig'ida tashrif buyuruvchilar sonining taxminan 500 000 dan 750 000 nafarga yetganini ko'rsatadi. Ushbu barqaror o'sish tendensiyasi O'zbekistonda tog'li hududlarning tobora ommalashib borayotganini ta'kidlaydi. 2023-yilda tog' turizmining iqtisodiy ta'siri 12 million dollarni tashkil etdi. Bu daromadning 60 foizi ichki turizm hissasiga to'g'ri keladi. Har qancha kichik ko'rinmasin, bu ko'rsatkich tog' turizmining umumiy iqtisodiy manzaradagi muhim segment ekanligini isbotlaydi (2-jadval).



2-jadval. O'zbekistonda ichki sayyohlar afzalliklari

Afzal ko'rilgan joy turi	Respondentlar foizi
Tog'lar va tog'li hududlar	17.60%
Oila turizmi	17.10%
Ziyorat turizmi	22.60%
Madaniy va ma'rifiy turizm	11.50%

O'zbekistonning umumiy turizm sektorida tog' turizmining aniq foizini aniqlash ushbu segment bo'yicha keng qamrovli milliy statistikaning cheklanganligi sababli qiyinchilik tug'dirmoqda. Mavjud ma'lumotlar, odatda, mintaqaviy xarakterga ega bo'lib, Toshkent viloyati kabi hududlarga taalluqli yoki butun mamlakat bo'ylab tog' turizmining to'liq ko'lamini emas, balki muayyan faoliyat turlarini qamrab oladi.

Shunga qaramay, mavjud ma'lumotlarga asosanib taxminiy baholashlar berish mumkin. Ichki sayyohlarning 17,6 foizi tog'da dam olishni afzal ko'rishini ko'rsatgan so'rov natijalari ushbu turdagi turizmga ichki qiziqishning sezilarli darajada ekanini bildiradi. Bundan tashqari, Toshkent viloyatidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, bu yerda faol ekoturizm (jumladan, tog' bilan bog'liq mashg'ulotlar) mintaqadagi barcha turizmning 60 foizini tashkil qilmoqda. Bu mazkur asosiy mintaqada tog' turizmi keng tarqalganligini ko'rsatadi.

2023-yilda tog' sayyohlari soni taxminan 750 000 nafarni tashkil etgan. Shu yili O'zbekistonga tashrif buyurgan jami sayyohlar soni 6,7 million nafarni tashkil qilganini inobatga olsak, taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, kelgan sayyohlarning qariyb 11,2 foizi aynan tog' turizmi maqsadida tashrif buyurgan. Biroq, iqtisodiy hissa nuqtayi nazaridan 2023-yilda tog' turizmidan olingan 12 million dollar daromad o'sha yilgi umumiy turizm daromadiga nisbatan ancha kam ko'rinadi. Umumiy daromadning pastki bahosi 2 milliard dollarni tashkil etsa, tog' turizmi 0,6 foizni tashkil qiladi; yuqoriroq baho — 3,5 milliard dollar bilan solishtirganda esa bu foiz yanada kichikroq bo'ladi.

Ushbu tahlillarga asosanib, O'zbekistonda tog' turizmi tashrif buyuruvchilar soni bo'yicha taxminan 10–15 foiz ulushga ega, deb hisoblash mumkin. Biroq mavjud daromad ma'lumotlariga tayanilsa, bu segmentning umumiy turizm daromadiga qo'shgan hissasi 1 foizdan kamroq bo'lib qolmoqda. Bu nomuvofiqlik 12 million dollarlik raqam butun mamlakat bo'ylab tog' turizmining to'liq iqtisodiy ta'sirini to'liq aks ettirmasligi yoki tog' sayyohlari boshqa turdagi sayyohlarga nisbatan kamroq xarajat qilishga moyilligi bilan izohlanadi. Shuningdek, bu holat O'zbekistonda tog' turizmining iqtisodiy jihatlari bo'yicha yanada batafsil va keng qamrovli ma'lumot to'plash zarurligini ta'kidlaydi.

Tog' turizmi o'sishiga ta'sir qiluvchi va cheklovchi omillar: O'zbekistonda tog' turizmining o'sishiga bir qator omillar ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, ammo ayrim muammolar uning yanada rivojlanishini cheklamoqda.

Harakatlantiruvchi omillar: Hukumatning tog' turizmi infratuzilmasini rivojlantirishga qaratgan kuchli e'tibori va sarmoyalari muhim rag'batlantiruvchi omillardandir. Mavjud chang'i kurortlarini takomillashtirish, yangi inshootlar va yo'llarni barpo etish bunga misol bo'la oladi. Global miqyosda sarguzasht va tabiat turizmi ommalashib borayotgan bir paytda, O'zbekistonning tog'li hududlari bu tendensiyadan foydalanish uchun qulay imkoniyatga ega. O'zbekiston tog'lari "yashirin marvarid" sifatida tanilgan bo'lib, bu kamroq gavjum va noyob joylarni izlayotgan sayyohlar uchun jozibador manzil hisoblanadi. Ichki bozorda ham tog'li joylarga barqaror talab mavjud bo'lib, ko'plab mahalliy sayyohlar aynan ushbu hududlarda dam olishni afzal ko'rmoqda. Chimyon, Beldersoy va Amirsoy kabi yaxshi jihozlangan chang'i kurortlari tobora ko'proq qishki sport ixlosmandlarini jalb qilmoqda. Strategik nuqtayi nazardan, tog' turizmini rivojlantirish O'zbekistonga o'z turizm takliflarini diversifikatsiya qilish, tarixiy va madaniy yo'nalishlardan tashqariga chiqish imkonini beradi.

Cheklovchi omillar: Ijobiy sur'atlarga qaramay, O'zbekistonda tog' turizmining to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishni cheklovchi muammolar mavjud. Sayyohlar ayrim tog'li hududlarda mavjud bo'lgan yo'l infratuzilmasi, turar joylar sifati va xizmat ko'rsatish darajasidan norozilik bildirgan. Bu muammolarni hal qilish uchun infratuzilma va xizmatlarni yaxshilash muhimdir. O'zbekistonda chang'i mavsumi odatda dekabr oyining oxiridan mart oyining o'rtalarigacha davom etadi, ya'ni qisqa davrni qamrab oladi. Bu mavsumiylik tog' kurortlarining daromad salohiyatini faqat qishki oylar bilan cheklaydi, natijada yil davomida faoliyat yuritish va boshqa mashg'ulotlarni rivojlantirish zarurati tug'iladi. Tog' turizmi bo'yicha aniq va ishonchli statistikaning yo'qligi ham ushbu segmentning umumiy sektorga qo'shayotgan hissasini to'liq baholash, shuningdek, kelajakdagi rivojlanish uchun aniq rejalashtirishni murakkablashtiradi. Ma'lumotlarni tizimli va keng qamrovli yig'ish asosli qarorlar qabul qilish hamda maqsadli investitsiyalar yo'nalishlarini belgilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaga investitsiyalar sayyohlar tajribasini sezilarli darajada yaxshilashi va texnologiyaga qiziqadigan bozor segmentini jalb etishga xizmat qilishi mumkin.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, aniq milliy ko'rsatkichlar hali shakllanayotgan bo'lsa-da, tog' turizmi O'zbekiston turizm sanoatining sezilarli va o'sib borayotgan segmentini tashkil etmoqda. Mavjud taxminlarga ko'ra, u umumiy sayyohlar oqimining taxminan 10–15 foizini tashkil qiladi, garchi to'g'ridan-to'g'ri daromad hissasi hozirgi ma'lumotlarga asoslanib nisbatan past bo'lib qolmoqda. Tashrif buyuruvchilar soni va daromad o'rtasidagi bu nomuvofiqlik yuqori xarajatlarni rag'batlantiruvchi inshootlar, xizmatlar va faoliyatlar rivoji uchun katta potentsial mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda tog' turizmining kelajak istiqbollari umidbaxsh. Hukumatning ushbu yo'nalishga tobora kuchayib borayotgan e'tibori va investitsiyalari, shuningdek, sarguzasht va tabiatga asoslangan sayohatlarga bo'lgan global qiziqish barqaror o'sish uchun muhim imkoniyatlar yaratmoqda. Tog'li hududlarda infratuzilmaning yaxshilanishi hamda maqsadli marketing sa'y-harakatlari sarguzasht sayyohlariga samarali yetib borgach, tashrif buyuruvchilar sonining ortishi kutilmoqda. Ayniqsa, uzoqroq muddatli tashriflarni va yuqori xarajatlarni rag'batlantiruvchi xizmatlar va takliflarning rivojlanishi tog' turizmining iqtisodiy ahamiyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Kirish imkoniyati, mavsumiylik va keng qamrovli statistik ma'lumotlarning yetishmasligi kabi muammolarni bartaraf etish ushbu sektorning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat qish mavsumida amalga oshiriladigan chang'i sporti bilan cheklanib qolmasdan, yil davomida faoliyat yurituvchi turizm turlarini rivojlantirish tog'li hududlarning har fasl sayyohlar uchun jozibador bo'lishini ta'minlaydi.

Oxir-oqibat, tog' turizmi O'zbekistonning turizm portfelini diversifikatsiya qilishda va xalqaro hamda mahalliy sayyohlarning kengroq doirasini jalb etishda tobora muhim rol o'ynashi mumkin. Bu yo'nalish mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga real va barqaror hissa qo'shish salohiyatiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yo'ldoshev, M. (2020). Turizm geografiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat Ilmiy Nashriyoti.
2. Ubaydullayev, C., va boshqalar. (2021). Turizm v Uzbekistane. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance.
3. Soliyeva, G. A., & Dedajanov, B.N. (2020). Turizm v Uzbekistane I rol marketinga v yego razvitii. Molodoy ucheniy, (5), 132-134.
4. Buxarova, F.M., Kurbonova, Sh.B., & Erkinova, S.X. (2024). Razvitiya turizma v Uzbekistane v sovremennix usloviyax. International scientific and practical Conference.
5. Shrestha, R. K., & Nepal, S. K. (2009). Tourism and its implications for agriculture in the mountain areas of Nepal. "International Journal of Sustainable Development & World Ecology, 16"(4), 283-292.
6. Pröbstl-Haider, U., & Haider, W. (2007). Sustainable tourism development in the Alps. "Tourism Review, 62"(2), 41-49.
7. Dorji, T., & Kinga, S. (2011). Ecotourism development in Bhutan: A case study of the Jigme Dorji National Park. "Journal of Sustainable Tourism, 19"(3), 295-312.
8. Canavan, B. (2014). Tourism and poverty reduction in the Peruvian Andes: A critical assessment. "Journal of Latin American Studies, 46"(2), 313-340.
9. Godde, P. M., Price, M. F., & Zimmermann, F. M. (Eds.). (2000). "Tourism and development in mountain regions". CABI Publishing.
10. Nunnally, D. (2014). "Tourism and the Nepalese Himalaya: Livelihoods, social change, and the environment". Channel View Publications.
11. Swain, M. B. (2012). Gender and tourism in mountain regions. "Annals of Tourism Research, 39"(2), 887-904.
12. Amelung, B., & Nicholls, S. (2014). Implications of climate change for tourism in mountain regions. "Tourism Geographies, 16"(3), 364-379.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>